



“TEMUR TUZUKLARI” ASARIDA AMIR TEMUR IJTIMOYIY QARASHLARINING JAMIYAT FALSAFIY TAFAKKURIGA TA’SIRI

“alfraganus university”

Nodavlat oliy ta’lim tashkiloti,

Botirov Z

Ijtimoiy fanlar kafedrası 2-kurs magistranti,

Annotatsiya: ushbu maqolada Amir Temurning “Temur Tuzuklari” asarining yozilish tarixi falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Xususan, Temur konstitutsiyalarida ilgari surilgan ijtimoiy boshqaruvning davlat boshqaruvi jarayoniga ta’siri ochib berilgan. Shuningdek, Amir Temur davlatni boshqarishda qanday asoslardan foydalanganligi tushuntirilgan. Bundan tashqari, bugungi kunda ushbu asarning jamiyat ijtimoiy-falsafiy hayotidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shu bilan birga, ishda davlat va fuqaro o’rtasidagi munosabatlarning bugungi kunning ijtimoiy va siyosiy tafakkuriga ta’siri tushuntirilgan.

Kalit so’zlar: asardagi davlat boshqaruvi, siyosiy va ijtimoiy qarashlar, Amir Temurning davlat boshqaruvi, jamiyat va inson o’rtasidagi boshqaruv, “Temur Tuzuklari” asarining yozilish tarixi, “Temur Tuzuklari” asarida diniy masalalarning yoritilishi, armiyaning shakllanish tartibi.

Abstract: In this article, the history of the writing of Amir Temur’s “Tuzuklari Temur” is analyzed from a philosophical point of view. In particular, the impact of the social management promoted in Temur’s constitutions on the state management process is revealed. It is also explained what basis Amir Temur used to lead the state in the development of state administration. In addition, the importance of this work in the socio-philosophical life of the society is analyzed today. At the same time, the influence of the relationship between the state and the citizen in the work on the social and political thinking of today is explained.

Key words: State administration, political and social views in the work, Amir Temur’s state administration, management between society and man, the history of the writing of the work “Temur Tuzuklari”, coverage of religious issues in the work “Temur Tuzuklari”, order of formation of the army.

Аннотация: В этой статье анализируется с философской точки зрения история написания произведения Амира Темура “тузы Тимура”. В частности, в конституциях Тимура раскрывается влияние социального управления на процесс государственного управления. Также объясняется, какие основы использовал Амир Тимур для управления государством. Кроме того, сегодня анализируется значение этого произведения в социально-философской жизни общества. При этом в работе объясняется влияние взаимоотношений государства и гражданина на общественно-политическое мышление сегодняшнего дня.

Ключевые слова: государственное управление, политические и социальные взгляды в произведении, государственное управление Амира Темура, управление между обществом и человеком, история написания произведения “Тимур тузуклари”, освещение религиозных вопросов в произведении “Тимур тузуклари”, порядок формирования армии.



Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligi, ma'naviyati o'zining salohiyati, mazmuni, tarbiyaviy kuchi va ta'siri bilan xalqimiz tarixida alohida o'rin tutadi. Shuning uchun ham Prezidentimiz qayd etganlaridek, «bizning tariximizda Amir Temurdek ulug' siymo bor ekan, uning qoldirgan merosi, pandu o'g'itlari bugungi hayotimizga hamohang ekan, oldimizda turgan bugungi muammolarni echishda bizga qo'l kelayotgan ekan, bizning bu merosni o'rganmasdan, ta'riflamasdan, targ'ibot qilmasdan haqqimiz yo'q»¹⁹. Sohibqiron ilgari davrlardan farqli holda, jamiyatdagi barcha tabaqalarning haq-huquqlari va manfaatlarini inobatga olib, ularning hayoti uchun zarur ijtimoiy zaminni vujudga keltirgan. Har bir toifaning haq-huquqlari, burch va majburiyatlari o'ziga xos qonun bilan kafolatlab qo'yilgan. Amir Temurning ulkan xizmatlaridan yana biri davlat boshqaruvini tashkil qilish bilan bog'liq. Hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijroiya tarmoqlariga bo'linishiga asoslangan mazkur tizimni joriy etishda Amir Temur ko'r-ko'rona emas, balki o'zi yashab turgan voqelikni nazarda tutgan holda ish yuritgan.

Amir Temur oliy davlat idorasi maqomida qurultoyini belgilagan. Bugungi tushunchadagi kongress, assambleya, majlis, syezd kabilarga to'g'ri keladigan ushbu siyosiy institut boshqaruv mahkamasi va davlat ahamiyatiga molik bo'lgan eng asosiy masalalarni hal etib, unda saltanatdagi barcha yirik siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy soha namoyondalari ishtirok etgan. Davlatni mustahkamlash, jamiyatni rivojlantirish borasida ijro etuvchi tizim — vazirliklarning o'rni muhim bo'lgan Amir Temur davrida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yib, ulardan jamiyat manfaati yo'lida foydalanish uchun qat'iy intizomga asoslangan, talabchan ijroiya mexanizmi zarur edi. Sohibqiron ana shunday tizimni yarata olgan. Xususan, «Temur tuzuklari» ilmiy jamoatchilikni 600 yil mobaynida qiziqtirib kelmoqda. Albatta, ushbu davrda yaratilgan adabiyotlar juda ko'p mavjud adabiyotlarni agar yaratilish sanalariga ko'ra tasnif etsak, uch davrni ajratib ko'rsatsa bo'ladi: 1) tuzuklar bo'yicha 1917 yilgacha olib borilgan tadqiqotlar; 2) sho'rolar davrida yozilgan asarlar; 3) mustaqillik davrida yaratilgan ilmiy izlanishlar²⁰.

Amir Temur saltanatining ijro etuvchi tizimidagi sakkiz vazirlik va yana bir necha muassasalar moliya, soliqlar, daromad va xarajatlar, mulkchilik, yetishtiriladigan hosil, chorva, yaylovlar ahvoli, obodonchilik, xabar va pochta, harbiy va adliya sohalarini boshqargan. Masalan, harbiy ishlar vazirligi harbiylarga maosh berish, ularga tegishli mulklarni boshqarish, qurol-aslaha ta'minoti, harbiy mashqlarni tashkil etish kabi vazifalar bilan bir qatorda, iste'foga chiqqan, urushda yarador bo'lib, mehnat qobiliyatini yo'qotganlarga nafaqa belgilash kabi yumushlarni ham bajargan.

O'z navbatida, «Temur tuzuklari» asari davlatni idora qilish usullari, qo'shinni tashkil etish qoidalari, urushlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan turli harbiy uslublar singari qator siyosiy, huquqiy, harbiy va axloqiy g'oyalar va me'yorlarni o'z ichiga olgan.

¹⁹ Amir Temur – faxrimiz, ғуруримиз. Маънавий юксалиш йўлида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998, 414-б.

²⁰ «Тузукларнинг таржималари, турли йиллардаги нашрлари хақида, Amir Temur jahon tarixida». – Париж, 1996, 119-144-б.



Darhaqiqat, “Temur tuzuklari”ning markazida inson, uning qadr-qimmatini joyiga qo‘yish turadi. Shu ma’noda Sohibqironning huquqiy qarashlarida mamlakat ishlari tuzuki alohida ahamiyatga egadir. “Saltanat ishlarini qonun va qoidalar, to‘ra va tuzukka solib, saltanatim martabayu e’tiborini saqladim”, deyiladi “Temur tuzuklari”da. Unda saltanat obro‘-martabasini saqlashga doir quyidagi to‘rtta asosiy tuzuk sanab o‘tilgan:

Xususan, o‘z saltanatim va saltanatimga bog‘langan birinchi tuzukim, Tangri taoloning dini va Muhammad mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim. Har yerda va har vaqt islom dinini qo‘llab-quvvatladim²¹.

Ikkinchidan, sipohu raiyatni umid va qo‘rquv orasida saqladim. Do‘st-dushmani murosayu madora martabasida tutdim. Qilmishlarini, aytgan gaplarini sabr-toqat va chidam bilan o‘tkazdim. Do‘st-dushmanidan kimki menga iltijo qilib kelsa, do‘stlarga shunday muomala qildimki, do‘stligi yanada ortdi, dushmanlarga esa, shunday munosabatda bo‘ldimki, ularning dushmanligi do‘stlikka aylandi...

Uchinchidan, hech kimdan o‘ch olish payida bo‘lmadim. Tuzimni totib, menga yomonlik qilganlarni Parvardigori olamga topshirdim. Ish ko‘rgan, sinalgan, shijoatli er-yigitlarni qoshimda tutdim. Sofdil kishilar, sayyidlar, olimlar va fozillarga dargohim doim ochiq edi. Nafsi yomon himmatsizlarni, ko‘ngli buzuq qo‘rqoqlarni majlisimdan quvib yubordim.

To‘rtinchidan, ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o‘zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo‘lishga intildim”²².

Tahlillarga ko‘ra, “Temur tuzuklari”da davlat boshqaruvining har bir sohasi va har qaysi mansab darajasi bo‘yicha muayyan tuzuklar bitilgan. Amir Temur 12 ta eng muhim tuzukni o‘ziga shior qilib olgan va saltanatni tasarrufida saqlash uchun ularga qat’iy amal qilgan. Shunday qilib, 27 mamlakatdan tarkib topgan buyuk saltanat asoschisi Sohibqiron Amir Temur ibn Tarag‘ay yirik davlat arbobi, mohir diplomat, ulug‘ sarkarda, ilmu madaniyat homiysi, haq va adolatning jasoratli yalovbardori sifatida milliy davlatchilikda, huquq va siyosat sohasida o‘zidan unutilmas va barhayot ta’limotlar, to‘ra-tuzuklar qoldirgan.

Sohibqiron zamonasining ajoyib diplomati, davlatlar o‘rtasida do‘stona munosabatlar o‘rnatilishi va iqtisodiy aloqalar rivojlanishining tarafdori sifatida ham mashhur edi. U olimlar va hokimlar, me’morlar va shoirlarning buyuk homiysi yanglig‘ dong chiqargan²³.

Amir Temurning huquqiy qarashlari va qonunchilik tizimi butun Temuriylar saltanatida hayotning barcha jabhalarida o‘z aksini topib, ulkan amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan. Jumladan, Buyuk Ipak yo‘li xavfsizligini ta’minlashga xizmat qilganki, bu bilan savdo-tijorat rivojiga katta hissa qo‘shgan Sharq G‘arb mamlakatlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirgan. D.I.Logofet «Tuzuklar»ni o‘rganib va unga yuksak baho berib:

²¹ Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: Yangi nashr, 2018. – B.55.

²² Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: Yangi nashr, 2018. – B.56.

²³ «Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни» мавзусидаги халқаро конференция тезислари тўпламига ёзилган сўз боши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996, 4-б.



«Turkistonda huquqiy davlat va Konstitusion Kodeks Evropadan 500-400 yillar oldin vujudga kelgan», degan fikrni ilgari suradi²⁴.

Qonunga asoslangan tizimning ahamiyatini chuqur anglagan Amir Temur haqli ravishda “Kuch — adolatda” degan oliy me’yorni o’ziga shior qilib olgan va hatto ushbu hikmatni uzuk-muhriga o’yib yozdirgan. Bu haqda Ibn Arabshoh shunday guvohdik beradi: “Temur tamg’asining naqshi “Rosti rasti” bo’lib, bu “haqgo’y bo’lsang, najot topasan” demakdir”. Sohibqironning bu purhikmat so’zlari bugun ham qudratli demokratik huquqiy davlat qurish uchun asosiy yo’llanma hisoblanadi.

Amir Temur asos solgan buyuk davlat o’zining turli bosqichlarida — ham Turon, ham Xuroson, ham Eron, ham Hindistonda adolat me’yorlariga asoslangan tuzum sifatida olam ahlining diqqatini o’ziga tortib, hanuz tarixiy ahamiyatini yo’qotmagan. Bugungi kunda Sohibqironning sud va qonunchilikka munosabati ham alohida o’rnak vazifasini o’taydi. Zero, bundan olti asr burun Movarounnahr sud tizimida o’ziga xos tartib va qoidalar mavjud bo’lgan. O’zbekiston istiqbolga erishgach, Amir Temur shaxsi yana Vatan va millat timsoliga aylandi. Amir Temur nomi, uning siymosi xalqimizni birlashtirish, jipslashtirish, iymon-oqibatli bo’lish, qudratli kelajagimizni qurishda bizga yangi-yangi kuch-quvvat va shijoat bag’ishlab turibdi. Zero, ma’naviyatimizning eng teran o’q tomirlaridan biri — ulug’ zot Amir Temur siymosidir. Sohibqiron siymosi insoniyat tarixida bizgacha bo’lgan, bizdan keyin ham bo’ladigan katta bir olamshumul voqelikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Амир Темур – фахримиз, ғуруримиз. Маънавий юксалиш йўлида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998, 414-б.
2. «Тузуқларнинг таржималари, турли йиллардаги нашрлари хақида, Амир Темур жаҳон тарихида». – Париж, 1996, 119-144-б.
3. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: Yangi nashr, 2018. – B.55.
4. «Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни» мавзусидаги халқаро конференция тезислари тўпламига ёзилган сўз боши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996, 4-б.
5. Логофет Д.И. Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – Санкт-Петербург, 1909. – С.340.

²⁴ Логофет Д.И. Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – Санкт-Петербург, 1909. – С.340.